



**TA'LIM JARAYONIDA FUQAROLIK, MAFKURAVIY, MA'NAVIY-
AXLOQIY, MEHNAT, JISMONIY VA ESTETIK TARBIYA HAMDA
AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

**Sultonova Nafisa
Qudratova Sabrina**

Termiz Davlat pedagogika instituti talabalar
sultonovanafisa@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada “Umumiy pedagogika” (R.A. Mavlonova va boshqalar) darsligidagi nazariy tamoyillar asosida o‘quvchilarda fuqarolik va mafkuraviy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mehnat, jismoniy va estetik tarbiya, shuningdek axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish masalalari chuqur tahlil qilindi. Tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy ong, axloqiy sifatlar, ma’naviy qadriyatlar, kasbiy va jismoniy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, kitobda berilgan tamoyillarga tayangan holda yoritildi. Fuqarolik tarbiyasi yosh avlodda ijtimoiy mas’uliyat, Vatanga sadoqat, huquqiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirish jarayoni sifatida ko‘rib chiqildi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya esa axloq, odob, e’tiqod, burch va vijdon kabi tushunchalarning mazmunidan kelib chiqib tahlil qilindi. Mehnat, jismoniy va estetik tarbiya o‘quvchilarning jismoniy rivoji, mehnatsevarlik, san’atni idrok qilish, go‘zallikni anglash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berildi. Raqamli davrda axborot iste’moli madaniyatining o‘rni, o‘quvchilarning axborot xavfsizligi, media savodxonligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritildi.

Kalit so‘zlar: tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy rivojlanish, estetik tarbiya, axborot madaniyati, ijtimoiylashuv, pedagogik jarayon.

KIRISH

“Umumiy pedagogika” fanida ta’kidlanganidek, tarbiya shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishi, ma’naviy va axloqiy ongining shakllanishiga xizmat qiluvchi murakkab, ko‘p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Mavlonova R.A.ning ilmiy yondashuvida tarbiya nafaqat pedagogik ta’sir,



balki shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi barcha omillar — oila, maktab, jamoatchilik, madaniyat, ta'lim muassasalari, maktabdan tashqari faoliyat, ommaviy axborot vositalari — birgalikda amalga oshiradigan tizimli jarayon sifatida talqin qilinadi. Tarbiya orqali shaxs jamiyatning ma'naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, mehnat va jismoniy qadriyatlarini o'zlashtiradi; shu bilan birga, uning e'tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi va ijtimoiy xulqi shakllanadi.

Kitobda ta'kidlanganidek, shaxsning ijtimoiylashuvi bolaning tug'ilgan kunidan boshlab boshlanadi va butun hayoti davomida davom etadi. Tarbiya jarayoni bola ongining rivojlanishi, uni o'rab turgan muhit, ijtimoiy tajriba, ijtimoiy institutlarning ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, maktab davri — shaxsda fuqarolik pozitsiyasi, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat va jismoniy madaniyat, estetik did, axborot madaniyati kabi sifatlar shakllanadigan eng mas'uliyatli bosqich sifatida qaraladi.

Mavlonova R.A. asarlarida tarbiya jarayonining uzviyligi, uzluksizligi, maqsadliligi, ijtimoiy shartlanganligi, yaxlitligi alohida qayd etiladi. Tarbiya mazmuni shaxsning jamiyatdagi o'rnini belgilovchi barcha asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim: fuqarolik va mafkuraviy tarbiya shaxsning davlat, jamiyat va Vatanga munosabatini shakllantirsa, ma'naviy-axloqiy tarbiya uning ichki dunyosini, odob-axloq me'yorlarini mustahkamlaydi. Mehnat tarbiyasi shaxsni kasbiy faoliyatga tayyorlasa, jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzini rivojlantiradi, estetik tarbiya esa uning dunyoqarashini, san'at va go'zallikni idrok etish qobiliyatini boyitadi.

Bugungi raqamli jamiyatda tarbiyaning yana bir muhim yo'nalishi — axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishdir. O'quvchi shaxsining ijtimoiy ongida axborotning o'rnini tobora kuchayib borayotgan hozirgi davrda axborot bilan ishlash madaniyati, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, internet xavfsizligi bo'yicha ko'nikmalarning rivojlanishi pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Shu sababli ta'lim jarayonida tarbiyaning barcha yo'nalishlari birgalikda qo'llanilgandagina shaxsning har tomonlama kamolga yetishi ta'minlanadi. Mazkur maqolada "Umumiy pedagogika" darsligida bayon etilgan nazariy qarashlar asosida fuqarolik va mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiya hamda axborot madaniyatini shakllantirish jarayonining pedagogik asoslari keng yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Tadqiqot Mavlonova R.A.ning "Umumiy pedagogika" kitobi asosida olib borildi. Kitobda tarbiyaning mohiyati, vazifalari, tamoyillari, shakl va metodlari, tarbiya jarayonining uzviyligi, ijtimoiy institutlarning roli, oila, maktab va jamoatchilikning ta'siri batafsil yoritilgan.



Ishda qo'llanilgan metodlar:

Pedagogik tahlil, Taqqoslash va umumlashtirish, Kontent tahlil, Strukturaviy-funksional yondashuv, Tarbiyaviy tizimlarni modellash

Natijalar

Fuqarolik va mafkuraviy tarbiya

Kitobdagi "ijtimoiylashuv", "ijtimoiy ong", "ijtimoiy institutlar" haqidagi nazariyalar asosida fuqarolik tarbiyasining mazmuni quyidagicha kengaytirildi:

Huquqiy ongni shakllantirish, Konstitutsiyaga hurmat tuyg'usi

Vatanga muhabbat, milliy g'urur, fuqarolik burchi

Jamiyat oldidagi mas'uliyatni anglash

Siyosiy madaniyat va mafkuraviy immunitet

Bu jarayon maktab, oila va jamiyat tomonidan qo'shma ijtimoiy ta'sir sifatida shakllanadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxsning jamiyatda o'zini tutishi, boshqalar bilan munosabat o'rnatishi, halollik, poklik, vijdonlilik kabi fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiya tizimidir. "Umumiy pedagogika" darsligida ta'kidlanganidek, axloq jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelgan me'yor va qoidalarining majmui bo'lib, ular insonlarning xatti-harakatini tartibga soluvchi eng muhim ijtimoiy regulyatoridir. Axloqiy qoidalar o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki tarixiy zaruriyat, ijtimoiy manfaat va jamiyat ehtiyojlari ta'sirida rivojlanib boradi.

O'zbek pedagogi Abdulla Avloniy axloqni "insonni yaxshilikka chorlaydigan, yomonlikdan qaytaradigan ilm" deb ta'riflaydi. Ibn Sino esa axloqni "o'zini-o'zi boshqarish ilmi" sifatida tavsiflaydi. Bu fikrlar ma'naviy tarbiyaning nafaqat xulq-atvorni tartibga solishi, balki insonning ichki dunyosini, ma'naviy motivlarini, e'tiqodini shakllantirishdagi rolini ko'rsatadi.

Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyatga, Vatanga, kishilarga va o'ziga bo'lgan munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Jamiyatga munosabatda vatanparvarlik, sadoqat, baynalminallik; mehnatga munosabatda mehnatsevarlik, burchni his qilish; insonlarga munosabatda hurmat, xushmuomalalik; o'ziga munosabatda esa intizom, o'zini nazorat qilish kabi fazilatlar muhim o'rin tutadi. Axloqiy me'yorlar huquq normalaridan farqli o'laroq ixtiyoriy bo'lib, ularning bajarilishi shaxsning ichki ishonchi va e'tiqodiga tayanadi.

Kitobda axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari sifatida jamiyatga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash, mehnatga axloqiy munosabatni shakllantirish, atrofdagilarga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalash, o'quvchi shaxsida ongli intizom, halollik, insof, insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish ko'rsatib o'tilgan. Bu jarayon ayniqsa



boshlang'ich maktab yoshida kuchli ta'sirga ega bo'lib, bolaning keyingi axloqiy taraqqiyotini belgilaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali shakl va usullari qatoriga tushuntirish, suhbat, munozara, o'rgatish, rag'batlantirish, ma'naviy adabiyotlar bilan ishlash, namunaviy shaxslar faoliyati bilan tanishtirish, milliy qadriyatlar va xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish kiradi. Xalq ertaklari, dostonlar, maqollar, qo'shiqlar, hadislar o'quvchilarda ezgulik va yovuzlikni farqlash, yaxshi xulqli bo'lishga intilish, halollikni qadrlash kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Shunday qilib, ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida, shaxsning komil inson sifatida shakllanishida, ijtimoiy munosabatlar muvozanatini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan murakkab pedagogik jarayondir.

Mehnat tarbiyasi har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omillaridan bo'lib, insonning kundalik hayoti, ijtimoiy faolligi va jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Mehnat shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy vosita bo'lib, bolalarning irodasi, hissiy olami, xarakteri va ijodiy faolligini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Pedagog olimlar, jumladan K.D. Ushinskiy, mehnat tarbiyasini shaxsni "turmush mehnatiga tayyorlovchi" eng asosiy tarbiyaviy jarayon sifatida baholagan.

Mehnat tarbiyasining bosh maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabat, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissini shakllantirishdir. Bu jarayon orqali o'quvchilar mehnatning ijtimoiy ahamiyatini anglaydi, jamiyat ravnaqiga hissa qo'shishga intiladi, kasb tanlashga oid dastlabki qarashlari shakllanadi. Mehnat faoliyati o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantiradi, nazariy bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi, shuningdek, ularni jamiyatda mavjud mehnat madaniyati va intizom me'yorlarini o'zlashtirishga yo'naltiradi.

Mehnat tarbiyasining samaradorligi uning boshqa tarbiya yo'nalishlari – aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik tarbiya bilan uyg'un holda olib borilishiga bog'liq. Mehnat jarayonida irodalilik, tirishqoqlik, tejamkorlik, javobgarlik, tashkilotchilik, jamiyat mulkiga ehtiyotkorlik kabi qimmatli sifatlar shakllanadi. O'quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etishda ishlab chiqarish texnologiyalari, zamonaviy kasblar, iqtisodiy jarayonlar haqida ma'lumot berish muhimdir.

Mehnat tarbiyasining mazmuni o'quvchilarni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-foydali mehnat, texnik ijodkorlik, o'quv-tajriba uchastkalarida va ishlab chiqarish korxonalarida amaliy ishlar bajarish kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari ishlarda to'garaklar, loyihaviy mashg'ulotlar, amaliy ishlar o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi.



Jismoniy tarbiya barkamol avlodni tarbiyalashning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, jismonan chiniqqan, mard, qat’iyatli va vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e‘lon qilinishi davlatimizda sog‘lom avlod tarbiyasiga bo‘lgan yuksak e‘tiborning yorqin ifodasidir. Zotan, “Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi” degan tamoyilga tayangan holda, jismoniy tarbiya nafaqat sog‘liqni mustahkamlash, balki yoshlarni aqliy, axloqiy va irodaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Fitratning ta’kidlashicha, bolalarni harakatli o‘yinlar orqali chiniqtirish, ularning badanini baquvvat, aqlini charxlangan holatda saqlash, odob-axloqini to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi. Abdulla Avloniy esa “sog‘lom fikr va yaxshi axloq sog‘lom tanadan boshlanadi” deb, jismoniy tarbiyani shaxs kamolotining moddiy negizi sifatida e’tirof etadi. Jismoniy tarbiyaning vazifalari sog‘liqni mustahkamlash, tabiiy harakat sifatlarini rivojlantirish, kuch, epchillik, chidamlilik, intizom va mas’uliyatni kamol toptirish, gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish hamda sport bilan doimiy shug‘ullanish ehtiyojini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy mashqlar organizmning barcha tizimlariga — yurak-qon aylanish, nafas olish, nerv tizimi, mushak-skelet faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, modda almashinuvi va qon aylanishini yaxshilaydi, gavdaning uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Gimnastika, harakatli o‘yinlar, sport mashg‘ulotlari, ertalabki zaryadka kabi vositalar maktabda muntazam qo‘llanilib, o‘quvchilarda jismoniy madaniyatni shakllantiradi. Dars jarayonidagi jismoniy daqiqalar esa bolalarning charchashini oldini olib, diqqat va ish qobiliyatini tiklaydi.

Mamlakatimizda yoshlar sportiga alohida e’tibor qaratilib, “Sog‘lom avlod dasturi” doirasida “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” kabi yirik sport musobaqalari tashkil etilgan. Jismoniy tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab uzluksiz tarzda olib boriladi va shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Nafosat (estetik) tarbiyasi barkamol shaxsni shakllantirishning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarda go‘zallikni his qilish, idrok etish va uni hayotga tatbiq eta bilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir. Estetik tarbiyaning mazmuni o‘quvchilarning voqelikdagi, tabiatdagi, san’atdagi, mehnatdagi va insoniy munosabatlardagi go‘zallikni anglash, qadrlash hamda ularga ijodiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Nafosat tarbiyasining asosiy vazifalariga o‘quvchilarda estetik bilimlarni shakllantirish, estetik madaniyat va nafosat tuyg‘ularini rivojlantirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, san’at asarlarini anglay olish, hayot va mehnat go‘zalligini



qadrlash, shuningdek, o'z faoliyatini go'zallik qonunlariga muvofiq tashkil etish qobiliyatini rivojlantirish kiradi. Bolaning didi tug'ma emas, balki oilada, maktabda, madaniy muassasalarda, san'at namunalari, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, raqs va tabiat ta'sirida shakllanib boradi.

Maktabda nafosat tarbiyasi o'quv jarayoni, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Mehnat darslari chiroyli buyum yaratish jarayonida did, tartib, ranglar uyg'unligini anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Jismoniy tarbiya mashqlari va harakatli o'yinlar estetik harakat madaniyati, jamoaviy uyg'unlik va ritm tuyg'usini rivojlantiradi. Rasm, musiqa, raqs kabi maxsus fanlar esa o'quvchilarning ijodiy qobiliyati va san'atni anglash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Musiqa va raqs san'ati o'quvchilarning tuyg'u olamini boyitib, ularda kuy-ohanglarni his etish, harakatni estetik ifoda qilish, kayfiyatni obraz orqali yetkazish malakalarini rivojlantiradi. Tasviriy san'at darslari esa kuzatuvchanlik, ranglar uyg'unligini sezish, estetik fikrlash va shakl yaratish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Tabiat go'zalligini kuzatish, ekskursiyalar o'tkazish o'quvchilarda tabiatga muhabbat, go'zallikni ko'ra bilish, atrof-muhitni asrash tuyg'ularini shakllantiradi.

Umuman olganda, nafosat tarbiyasi o'quvchilarda did, farosat, xushmuomalalik, poklik, ozodalikka intilish, san'atni qadrlash, go'zallik yaratishga bo'lgan ehtiyojni shakllantiradi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan estetik tarbiya yosh avlodning intizomi, ma'naviy saviyasi va shaxsiy rivojida muhim o'rin egallaydi hamda barkamol shaxs tarbiyasiga xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyatda axborotning cheksiz tezlikda ko'payishi, turli manbalarning mavjudligi, internet, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishni dolzarb vazifaga aylantirdi. "Umumiy pedagogika"da keltirilgan pedagogik qarashlarga ko'ra, har bir tarbiya yo'nalishi zamon ruhiga mos tarzda olib borilishi shart. Bugungi kunda esa o'quvchilarni axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish va undan samarali foydalanishga o'rgatish — tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir.

Tarbiyaning barcha yo'nalishlari — fuqarolik, ma'naviy, mehnat, jismoniy va estetik tarbiya — Mavlonova darsligida ta'kidlanganidek, bir-biridan ajralmas, o'zaro uzviy jarayonlardir. Ularning uyg'unligi o'quvchining har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Axborot iste'moli madaniyati esa zamonaviy tarbiyaning eng muhim komponentiga aylanib, shaxsning ijtimoiy muhitda to'g'ri yo'n olishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsning har tomonlama yetuk bo'lib voyaga



yetishi ta'lim va tarbiya jarayonining barcha yo'nalishlari bir-biri bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina samarali bo'ladi. "Umumiy pedagogika" darsligida qayd etilgan tamoyillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mavlonova R.A. va boshqalar. *Umumiy pedagogika*. Toshkent, 2018.
2. Maxmudova O.A., Maxmudova S.A. "Maktabgacha ta'lim tizimida plastik materiallar bilan ishlash texnologiyalari". O'quv qo'llanma. "NISO POLIGRAF". Toshkent, 2019-120b.
3. Xasanboyeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O'quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2012
4. Hasanboeva O., To'laganov O'. *Pedagogika nazariyalari*. Toshkent, 2020.
5. Building Children's Understanding of the World through Yenvironmental Inquiry / A Resource for Teachers. Printed in Canada by Maracle Press Ltd., Copyright ©
6. UNESCO. *Media Information Literacy Curriculum*. 2018.